



ZAMONAVIY KASBLAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xolqo'ziyeva Mohira Abdurasulovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

MMTBga qarashli 14-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Zamon o'zgarib, jamiyat rivojlanib borgan sari, insonlarning ehtiyojlari ham o'zgarib boradi. Ehtiyojlardan kelib chiqib albatta, insonlarning kasblari ham ehtiyojlarga monand o'zgarib boradi. Ushbu maqolada hayotimizdagi zamonaviy kasblar va ularning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kasb, mutaxassis, zamonaviy kasblar, IT mutaxassisi, jahon bozori, rivojlangan davlatlar, freelanserlik faoliyati.

Kasb (lotincha: professio — rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik) — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasb-bu jamiyat uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo'lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasidir, masalan, o'qituvchi, shifokor, injener, dizayner va hokazo. Mutaxassislik esa bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turidir. Masalan, tarix o'qituvchisi, matematika o'qituvchisi, stomatolog, kardiolog, pediatr, quruvchi-muhandis, loyihalovchi-muhandis, injener-konstruktor, badiiy libos dizayneri va hokazo. Insoniyat paydo bo'libdiki, o'z ehtiyojlaridan va atrofdagi insonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ma'lum bir kasb-hunar bilan shug'ullanib kelmoqda. Masalan, avvallari temirchilik,



vagonsozlik, kemasozlik, to'qimachilik bilan shug'ullanilgan bo'lsa, asta sekin bu kasblar "Eskirib", ularning o'rnida yangi sohalar paydo bo'ldi. Bu o'zgarishlar ayniqsa, sanoat va fan-texnika inqilobi davrida yana ham avj oldi. XXI asr raqamli texnologiyalar asri hisoblanadi. Hayotimizda deyarli barcha sohalarga raqamli texnologiyalar kirib keldi. Barcha sohalar raqamlashtirilmoqda. Shunga monand aholining faoliyat turlari ham o'zgarib, yoshlarning kasbiy qiziqishlari ham o'zgarib bormoqda. Har yili dunyo bo'yicha millionlab dasturlar ishlab chiqiladi, ammo ularning sanoqlilarigina bizga tanish. Chunki, dasturdan foydalanish bajarilayotgan vazifani qanchalik osonlashtirishi haqida o'ylab ko'rilmagan. Dasturiy mahsulotni ishlab chiqishni esa, o'ylab ham ko'rilmaydi. Xuddi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish jarayoni o'ta murakkab va uddalab bo'lmas topshiriqdek tuyuladi. Qachon bunday tushunchadan voz kechiladi? Qachon o'rganishni boshlanadi? Intellect mevasi ya'ni dasturni sotish mumkin bo'lgan ayni zamonda qachongacha dunyoga moddiy mahsulotlarni sotiladi. Yoki, qachongacha kuchli dasturlar faqat chet eldan sotib olinadi. Qachonki, dunyoqarash o'zgartirilganda, qachonki, dasturlashga qobiliyatlilar tarbiyalanib, unga yo'naltirishning qamrovi kengaytirilganda. O'zbekistonda kuchli dasturchilarning yetishmasligi masalaning qanchalik dolzarb ekanligini asoslaydi. Shu o'rinda, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan ham IT sohasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bunga 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror ham yaqqol misol namunasidir. Nima uchun davlatimiz raxbari tomonidan yangi IT sohasiga bunchalik e'tibor qaratilmoqda? Chunki, mamlakatning dunyo bozorida tutgan o'rnini uning jahon bozoriga qanday mahsulotlarni olib chiqishi bilan ham belgilanadi. Jahonning eng yaxshi rivojlangan mamlakatlari hozirda dunyo bozoriga aynan IT mutaxassislari tomonidan yaratilgan mahsulotlar, intellektual faoliyat mahsulotlarini olib chiqmoqdalar. Bizning mamlakatimiz ham jahonning yirik eksportyorlari qatoridan joy olishi uchun albatta, yetuk mutaxassislar kerak bo'ladi. Bunday mutaxassislarni aynan o'zimizda mavjud bo'lishi, o'zimizning yoshlar orasidan IT



mutaxassislarini yetishib chiqishi aynan maqsadga muvofiq bo`ladi. Odatda ayol-qizlar o'zlarini zamonaviy texnologiyalar sohasida sinab ko'rishdan tortinishadi. Bu o'g'il bolalarning ishi degan tushuncha mavjudligi tabiiy holat. Jamiyatning yaxshi tomonga o'zgarishi ko'proq ayollarga bog'liq, sababi farzand tarbiyasi, ularning ta'limi bilan ko'proq ayollar shug'ullanishadi. Qizlar ham dasturlash sohasida katta natijalarga erishishi shubhasiz, lekin kelajakda oilaviy sabablarga ko'ra biror joyda ishlay olishmasa, bimalol freelancer sifatida ham faoliyat olib borish mumkin. Odatda, ayollarimiz uydan chiqmagan holda biror foydali ish faoliyati bilan shug'ullanishni afzal ko'rishadi. Freelanserlik faoliyati esa aynan shunday faoliyat turlariga kiradi. **Frilans** (ing. freelance), **frilanser** (ing. freelancer) yoki **yollanma ishchi**, odatda o'z-o'zini ish bilan ta'minlovchi va ma'lum bir ish beruvchiga bog'lanib qolmaydigan shaxs uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi. Frilanserlik faoliyatini olib borish mumkin bo'lgan, kasblar va sohalarga quyidagilar kiradi: Musiqa bastalash, Kopirayterlik (matnlar bilan ishlash), Aktyorlik, Kompyuter dasturlash, Veb-dizayn, Grafik dizayn, Tarjimonlik, Illyustratsiya chizish, kino va video olish va ba'zi nazariyotchilarning asosiy ish deb bilishadi. Demak, ayol-qizlarga ham zamonaviy kasblarni mohiyatan tushuntirib, targ'ib qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahromova, M. M. (2021). Multimediali intellektual o'yinlar orqali bolalarda dasturlash ko'nikmasini shakllantirish. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(6), 1189-1193.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga



kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "O'zbekiston", 2017. -102 b.

4. Xolmatov P.Q. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. 1.modul. Majmua. JVPXQTMOHM. 2022.

5. Xolmatov P.Q. va boshq. Kasb tanlash hususiatlari. Oquv qollanma. Poytaht-Eksklyuziv. T.2022.

6. Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Metodik qo'llanma. Navruz. 2021.